



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-dekabr*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi*

Тел. 76-225-65-74

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-dekabr oyi, foizda)




2025-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 355 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 71 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 284 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024-yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023-2024-yillar)



2024-yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **109,0 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 24 883,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 109,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 803,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 24 079,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 4 199,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 116,8 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-dekabr oyi)

	Jami, mlrd so'm	2023-yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	24883,2	109,0
Termiz sh.	4441,4	111,0
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	962,6	109,6
Angor	1128,4	108,5
Bandixon	333,4	109,4
Boysun	966,7	108,7
Muzrabot	1034,1	107,7
Denov	5551,7	107,8
Jarqo'rg'on	1306,3	108,7
Qumqo'rg'on	1024,6	109,7
Qiziriq	1014,6	108,7
Sariosiyo	912,5	108,4
Termiz	459,9	108,1
Uzun	1044,9	108,9
Sherobod	1458,0	109,8
Sho'rchi	2466,2	109,3

2024-yilning yanvar-dekabr oyida 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan viloyatning Termiz sh. (111,0 %), Sherobod (109,8 %) va Qumqo'rg'on (109,7 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

(Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 23,0 % bilan 5 551,7 mlrd so'mni tashkil tdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,4 % bilan 333,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'm
Denov	5 551,7
Termiz sh	4 441,4
Sho'rchi	2 466,2
Sherobod	1 458,0
Jarqo'rg'on	1 306,3
Angor	1 128,4
Uzun	1 044,9
Muzrabot	1 034,1
Qumqo'rg'on	1 024,6
Qiziriq	1 014,6
Boysun	966,7
Oltinsoy	962,6
Sariosiyo	912,5
Termiz	459,9
Bandixon	333,4




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-dekabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 24 079,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 8,9 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,8 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 9,4 % ga oshdi va 803,9 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,2 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,5 %), Boysun (99,4 %) va Angor (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (6,0 %), Denov (4,6 %), Sherobod (2,4 %) va Jarqo'rg'on (2,4 %) tumanlarida kuzatildi.




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2024-yilning yanvar-dekabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 8 547,1 ming. so'mni (2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 106,4 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (21 718,2 ming. so'm), Denov (13 053,7 ming. so'm) va Sho'rchi (10 657,6 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-dekabr), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024-yil yanvar-dekabr)**

	Jami, mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	4199,2	116,8
Termiz sh.	346,5	169,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	400,9	125,3
Angor	132,3	92,6
Bandixon	210,8	111,1
Boysun	283,1	121,0
Muzrabot	411,2	112,2
Denov	495,6	122,6
Jarqo'rg'on	229,4	107,3
Qumqo'rg'on	221,7	103,0
Qiziriq	312,4	126,6
Sariosiyo	302,6	112,7
Termiz	85,1	97,6
Uzun	310,7	122,7
Sherobod	143,0	110,5
Sho'rchi	313,9	98,6


qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2024-yil yanvar-dekabr)**



**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm
(2024-yil yanvar-dekabr)**



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 4 199,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 116,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 2 079,9 mlrd so'mni (123,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 2 019,3 mlrd so'mni tashkil etdi (110,7 %).

2024-yilning yanvar-dekabr oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 2 079,9 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (1 080,1 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>1 080,1 mlrd so'm</p>  <p>51,9 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>211,3 mlrd so'm</p>  <p>10,2 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>197,7 mlrd so'm</p>  <p>9,5 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>60,1 mlrd so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>111,6 mlrd so'm</p>  <p>5,4 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>66,7 mlrd so'm</p>  <p>3,2 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>43,3 mlrd so'm</p>  <p>2,1 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>58,1 mlrd so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>25,0 mlrd so'm</p>  <p>1,2 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>42,8 mlrd so'm</p>  <p>2,1 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>38,3 mlrd so'm</p>  <p>1,8 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>144,9 mlrd so'm</p>  <p>6,9 %</p>

2024-yilning yanvar-dekabr oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 2 119,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 510,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 585,4 mlrd so'mni, otlar – 18,1 mlrd so'mni, parrandalar – 5, mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar
988,5 mlrd so'm	296,3 mlrd so'm	225,4 mlrd so'm
 46,6 %	 14,0 %	 10,6 %

Qo'ylar	Otlar	Echkilar
494,3 mlrd so'm	18,1 mlrd so'm	91,1 mlrd so'm
 23,3 %	 0,9 %	 4,3 %

Kurka, o'rdak, g'oz	Tovuqlar	Quyonglar
2,3 mlrd so'm	2,4 mlrd so'm	0,9 mlrd so'm
 0,1 %	 0,1 %	 0,1 %

Qushlar
mlrd so'm
 %



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 543 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 542 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-dekabr)

	Jami mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	8376,0	108,2
Termiz sh.	235,2	109,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	17,1	117,8
Angor	19,6	111,8
Bandixon	6,4	123,6
Boysun	14,0	114,0
Muzrabot	17,7	118,2
Denov	99,8	106,6
Jarqo'rg'on	34,6	104,7
Qumqo'rg'on	17,0	109,8
Qiziriq	11,7	107,9
Sariosiyo	33,3	122,3
Termiz	50,0	111,1
Uzun	18,8	114,3
Sherobod	31,9	118,5
Sho'rchi	25,8	120,9

2024-yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 8 376,0 mlrd so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi..


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd so‘m	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	1856,7	100,0
Termiz sh.	636,7	34,3
tumanlar:		
Oltinsoy	1,1	0,1
Angor	34,3	1,8
Bandixon	2,5	0,1
Boysun	2,8	0,2
Muzrabot	1,4	0,1
Denov	951,2	51,2
Jarqo‘rg‘on	91,6	4,9
Qumqo‘rg‘on	28,0	1,5
Qiziriq	17,1	0,9
Sariosiyo	8,1	0,4
Termiz	30,9	1,7
Uzun	1,2	0,1
Sherobod	11,1	0,6
Sho‘rchi	38,7	2,1


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (951,2 mlrd so‘m) va Termiz shahri (636,7 mlrd so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)




2024-yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 856,7 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,9 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 521,8 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 53,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 334,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati –96,8 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 969,4 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 9 958,0 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 90,8 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-dekabr)

	Jami mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	10969,4	105,9
Termiz sh.	1640,6	107,6
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	200,7	51,6
Angor	170,2	106,2
Bandixon	513,9	109,8
Boysun	33,2	114,3
Muzrabot	505,9	177,4
Denov	2379,5	109,8
Jarqo'rg'on	201,1	101,5
Qumqo'rg'on	266,7	64,9
Qiziriq	50,5	103,2
Sariosiyo	159,8	115,9
Termiz	436,5	123,7
Uzun	78,7	66,1
Sherobod	392,8	143,9
Sho'rchi	431,7	77,5

2025-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 393 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 374 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Termiz (451,6 %) , Angor (194,5 %) va Boysun (146,6 %) tumanlarida kuzatildi.